BUYUK IPAK YO‘LIDA DIPLOMATIK MUNOSABATLAR
(Samarqand Sug‘di misolida)

© 2025. Shoira Indiaminova

Samarqand davlat chet tillar instituti

Kalit so‘zlar: Buyuk Ipak yo‘li, diplomatiya, Ban Chao, savdo, madaniy almashinuv, savdo shartnomalari, karvon yo‘llari, nizolar va ularni hal qilish, madaniy aloqalar, diniy almashinuvlar.

Ushbu maqolada Xitoy, Markaziy Osiyo, Hindiston, Yaqin Sharq va Yevropa o‘rtasida ilk o‘rta asrlarda savdo aloqalarini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlashda diplomatiyaning roli haqida o‘ziga xos nuqtai nazar keltirilgan. Shuningdek, maqolada qadimgi imperiyalar qo‘llagan diplomatik vositalar, davlatlar o‘rtasida qanday ittifoq va bitimlar tuzilgani, mintaqadagi ziddiyatlarni bartaraf etish va keskinlikni yumshatish uchun diplomatiyaning qanday usullaridan foydalanilgani ham ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, madaniy almashinuv va diplomatik aloqalarning ilm-fan, san’at va diniy e’tiqodlar rivojiga ta’siriga e’tibor qaratilgan. Ularning tahlili natijasida diplomatiya Ipak yo‘lida barqarorlik va farovonlikning muhim omili bo‘lib xizmat qilganini tushunish imkonini beradi. Maqolada mashhur savdo yo‘li bo‘ylab savdo va madaniy almashinuv kontekstida diplomatiyaning roli yoritilgan bo‘lib, karvon yo‘llari xavfsizligini ta’minlash, savdo nizolarini hal etish, turli xalqlar va sivilizasiyalar o‘rtasidagi madaniy almashinuvni rag‘batlantirish uchun qadimgi imperiya va davlatlar diplomatik mexanizmlardan qanday foydalanganliklari tahlil qilingan bo‘lib shuningdek, Xitoydan Yevropagacha cho‘zilgan bu uzoq yo‘lda tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun qadim zamonlarda qo‘llanilgan turli diplomatik strategiyalar va vositalar tasvirlangan. Maqolada mintaqadagi mojarolarni hal qilish va harbiy to‘qnashuvlarning oldini olish uchun diplomatiyadan muvaffaqiyatli foydalanishning tarixiy misollari ham keltirilgan. Bu Buyuk Ipak yo‘lida barqarorlik va farovonlikni ta’minlashda diplomatik mahorat muhimligini tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, maqolada madaniy va ilm-fan yutuqlarini tarqatishda, shuningdek, Ipak yo‘li bo‘ylab boshqa madaniyatlar va xalqlar haqida jamoatchilik fikri va tasavvurlarini shakllantirishda diplomatik almashinuvlarning o‘rni ko‘rsatilgan.

ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ НА ВЕЛИКОМ ШЕЛКОВОМ ПУТИ
(на примере Самаркандского Согда)

© 2025. Шоира Индиаминова

Самаркандский государственный институт иностранных языков

Ключевые слова: Великий шелковый путь, дипломатия, Бан Чао, торговля, культурный обмен, торговые соглашения, караванные пути, конфликты и их разрешение, культурные связи, религиозные обмены.

В этой статье представлена уникальная точка зрения о роли дипломатии в формировании и поддержке торговых связей между Китаем, Центральной Азией, Индией, Ближним Востоком и Европой в раннем Средневековье. Также рассматриваются дипломатические средства, использованные древними империями, какие союзы и соглашения были заключены между государствами, а также методы дипломатии, применявшиеся для устранения конфликтов и смягчения напряженности в регионе. Кроме того, акцентируется внимание на влиянии культурного обмена и дипломатических отношений на развитие науки, искусства и религиозных верований. В результате их анализа можно понять, что дипломатия служила важным фактором стабильности и процветания на Шелковом пути. В статье рассматривается роль дипломатии в контексте торговли и культурного обмена на знаменитом торговом пути древней империи для обеспечения безопасности караванных путей, разрешения торговых споров и поощрения культурного обмена между разными народами и цивилизациями, а также то, как ее использовали государства. анализируются дипломатические механизмы, а также описываются различные дипломатические стратегии и инструменты, использовавшиеся в древности для поддержания мира и стабильности

на этом длинном пути из Китая в Европу. Также в статье приводятся исторические примеры успешного использования дипломатии для разрешения региональных конфликтов и предотвращения военных конфликтов. Это помогает понять важность дипломатического мастерства в обеспечении стабильности и процветания на Великом шелковом пути. Кроме того, в статье показана роль дипломатических обменов в распространении культурных и научных достижений, а также в формировании общественного мнения и представлений о других культурах и народах вдоль Шелкового пути.

Insoniyat yer yuzida paydo bo‘lganidan buyon o‘tgan davr mobaynida o‘z hayoti va turmushini qulay, farovon qilish uchun tinimsiz izlangan. Olovni kashf qilinishi ibtidoiy odamlarning hayotiga katta qulaylik olib keldi. Uning ovqatiga maza-matra kirdi, qahraton sovuq ham bir oz chekindi. Olovni kashf qilinishi o‘z navbatida metallni kashf qilinishga yo‘l ochdi. Metallni kashf qilinishi esa insonga katta imkoniyat yaratdi. Metalldan yasalgan mehnat va ov-qurollari tosh qurollardan ko‘ra afzal va qulay edi. Bu dehqonchilik hamda ovchilikda katta ijobiy burilishlarga olib keldi.

G‘ildirakni kashf qilinishi esa insoniyatning hayotida ulkan o‘zgarishlar yasadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Endi odamlar uzoq masofalarga qatnash, yiroqlardan har xil tovarlarni keltirish imkoniga ega bo‘ldilar. Insoniyat tomonidan qilingan yana bir kashfiyot borki, uning ahamiyati yuqorida tilga olingan kashfiyotlardan kam emasdir. Bu, nomi ham anchayin mayin, qit’alararo o‘tuvchi savdo karvon yo‘li – Buyuk Ipak yo‘lidir. Olimlarning fikricha, bu savdo-karvon yo‘lini ilk bor Venesiyadan Xitoyga, mo‘g‘ul xoni Xubilayning saroyiga borgan sayyoh Marko Polo, “Ipak yo‘li”, – deb atagan. Oradan olti asr o‘tgach nemis olimi Ferdinand fon Rixtgofen 1877 yili nashr etilgan “Xitoy” nomli kitobida bu yo‘lni “Buyuk Ipak yo‘li”, – deb atadi. Shundan so‘ng bu nom ommalashib ketadi.

Albatta, Buyuk Ipak yo‘li insoniyat tomonidan kashf qilingan yagona yo‘l emasdir. Bundan ilgari ham juda ko‘plab karvon yo‘llari kashf qilingan. Bu yo‘llar o‘z ibtidosi va intihosi, uzun – qisqaligi, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bilan bir-biridan farq qiladi.

Buyuk Ipak yo‘lidan nafaqat, savdogarlar, tijoratchilar balki, elchilar ham qatnaganlar. Ular ikki davlat o‘rtasida yuzaga kelgan tushunmovchiliklar, nizolarni bartaraf etish yoki davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘yish uchun Buyuk Ipak yo‘li orqali Sharqdan G‘arbga, G‘arbdan Sharqqa borganlar. Qadimgi vaqtlarda hali maxsus elchilar yetishib chiqmagan davrlarda, bu vazifani obro‘li vazirlar, amaldorlar, savdogarlar va olimu-ulamolar, diniy rahnamolar amalga oshirgan.

Markaziy Osiyoda diplomatik munosabatlarning tug‘ilishi moziyning eng chuqur qa’riga borib tutashishini olimlar allaqachon isbotlagan. Qadim zamonlarda bir qabila boshqa bir qabila bilan ayovsiz urush olib borganida bu urushlar ancha vaqtga cho‘zilgan. Shunda har ikki tomon maxsus vakillar orqali muzokaralar olib borgan va urush maydonidan yarador va halok bo‘lganlarni olib chiqqanlar.

Muzokara olib borayotganlarga ziyon-zahmat yetkazish yoki ularni o‘ldirish qat’iyan man qilingan. Shu davrlardan buyon “elchiga o‘lim yo‘q”, – degan ibora paydo bo‘lgan. Bu an’ana hozirda ham davom etmoqda. Bugungi elchilarning shaxsiy dahlsizligi ham shu bilan bog‘liqdir.

Sharqona diplomatiyaga oid eng qadimgi yozma ma’lumotlar zardushtiylarning muqaddas kitobi Avestoda o‘z aksini topgan. Ushbu muqaddas kitobda yozilishicha, quyosh ma’budasi Mitraning vazifalariga o‘zaro tuzilgan shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish, harbiy nizolar va bahslarni, hamda qabilalar o‘rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni hal qilish kabi muhim masalalar kirgan. Yozma ma’lumotlardan anglashilishicha, hukmdorga yaqin bo‘lgan amaldorlar orasidan maxsus odamlar tanlanib ularni diplomatik vazifalarni bajarishga tayyorlaganlar. Elchilar o‘z xabar yoki takliflarini og‘zaki ravishda yoki har xil ramziy belgilar orqali yetkazgan (Лунин 1984: 68–70).

Osiyodagi diplomatik munosabatlar haqida so‘z ketganida Qadimgi Xitoy bilan Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi elchilik aloqalariga alohida to‘xtalish lozim bo‘ladi. Markaziy Osiyo bilan Xitoy o‘rtasidagi ilk diplomatik aloqalar miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi.

Xitoylik monax Chjan Syan boshchiligidagi elchilar karvoni ilk bor Markaziy Osiyoga yetib kelgan davrdan boshlab qit’alararo o‘tuvchi savdo-karvon yo‘li – Buyuk Ipak yo‘liga asos solingandir. Bu davrgacha xitoyliklar Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkiston haqida hech qanday tasavvurga ega bo‘lmagan, degan fikr mavjud. Ammo ko‘pchilik olimlar bu fikrga unchalik qo‘shilishmaydi. Ularning fikricha, Chjan Syandan yuz yillar ilgari, Aleksandr Makedonskiyning qonli urushlaridan jabr chekkan ko‘pchilik sug‘dlar Sharqiy Turkistonga qochishga majbur bo‘lishgan va bu yerda o‘z savdo koloniyalarini barpo qilishib Buyuk Ipak yo‘lining boshlanishiga asos solishgan (Бердимуродов, Индиаминова. 2017:195). Nima bo‘lganida ham, Buyuk Ipak yo‘lining boshlanishiga har ikki omil asos bo‘lgani aniq.

Xitoy bilan G‘arbiy o‘lka (Markaziy Osiyo) o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning boshlanishiga o‘sha davrning eng qudratli ikki qabilasi: xunnlar va yuechjilar o‘rtasida yuzaga kelgan nizolar ham sabab bo‘lgan, desak xato bo‘lmaydi.

Xunnlarning tobora kuchayib borishi xitoyliklarning osoyishtaligiga putur yetkaza boshlaydi va Xitoy imperatorlari xunnlarga qarshi kurashda ittifoqchi izlay boshlaydi. Imperator U-di (miloddan avvalgi 140–87 yillar) ham xunnlarga qarshi kurashda ittifoqchi qidirib turli tomonlarga o‘z elchilarini jo‘natadi. Imperator U-di o‘z elchisi Chjan Syanni G‘arbiy o‘lka tomon yo‘llaydi. Uning maqsadi yuechjilar bilan ittifoq tuzib xunnlarga qarshi kurashish edi.

Xitoyliklarning G‘arbiy o‘lkaga qilgan yana bir yurishi elchi Ban Chaoning faoliyati bilan bog‘liqdir. Bu davrda G‘arbiy o‘lkaning bir qismi shimoliy xunnlar tasarrufida edi. Ban Chao 73 yili Dou Gu qo‘shinlari tarkibida G‘arbiy o‘lkaga keladi va 29 yil mobaynida bu yerda faoliyat ko‘rsatadi. Milodiy 78 yildan boshlab Ban Chao Sharqiy Turkiston shaharlarini birin-ketin istilo qilish harakatiga tushadi. U imperatorga maktub yozib, usunlar bilan ittifoqni mustahkamlashni taklif qiladi, ammo elchilar karvoni usunlar yurtigacha yetib bora olmaydi. Dastlab, xitoyliklar tomonida bo‘lgan Kangyuy o‘z fikrini o‘zgartirib, xitoyliklarga qarshi chiqadi. Milodiy 85-yili Kushon podshosining aralashuvi bilan Kangyuy hukmdori Sharqiy Turkistondan o‘z qo‘shinlarini olib chiqadi (Кляшторный, Султанов 2007: 81). 83-yili Ban Chaoga 800 ta jangchi yordamga keladi va u bu qo‘shinlar bilan birga Yorkentga hujum boshlaydi. Ammo Qoshg‘arda xitoyliklarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tariladi va Ban Chao o‘z qo‘shinlarini bu yerga tashlashga majbur bo‘ladi. Ban Chao Qoshg‘arliklarning qo‘zg‘olonini bostirishga qariyb olti oy vaqt sarflaydi va qo‘zg‘olonni bostirib bo‘lgach yana Yorkent ustiga yurishni boshlaydi. Yorkentliklarga Kuchi va Oqsu hukmdorlari ham yordamga keladi. Ammo, Ban Chao hiyla ishlatib shaharni istilo qilishga erishadi. Milodiy 90-yillarda Xitoy diplomatiyasi va qo‘shinlari Sharqiy Turkistonda Kushon podsholari bilan yuzma-yuz keladilar. Ban Chao noma’lum sabablarga ko‘ra, kushonlar bilan jangga kirishadi va bu urushda g‘olib bo‘ladi. Xitoy qo‘shinlari xunnlarni Xami vohasidan quvib chiqarganlaridan so‘ng, ularning G‘arbiy o‘lka bilan bo‘lgan aloqalari qayta tiklanadi. Ban Chao qo‘shinlari G‘arbiy Turkiston shaharlari istilosini yakunlaydi.

Xitoy qo‘shinlarining g‘olibona yurishlariga qaramay, ular kushonlar kuchini batamom sindirishga erisha olmaydilar va Markaziy Osiyo zaminiga kira olmadilar. Ban Chao tarixda mohir elchi, siyosatchi va lashkarboshi sifatida qolgan, u o‘z maqsadiga erishish yo‘lida hech qanday usuldan voz kechmagan. Ayyorlik, aldov, maqtov, sotib olish, qonxo‘rlik uning uchun begona bo‘lmagan. Eramizning 102-yili Ban Chao barcha xizmatlardan voz kechib Loyanga qaytib kelib u yerda vafot etadi.

O‘limidan sal ilgari Ban Chao elchi Gan Inni Rimga elchi qilib jo‘natgan edi. Elchi Gan Inga O‘rta yer dengizi va uning g‘arbiy tomonida yashaydigan xalqlar haqida ma‘lumot yig‘ish, yo‘llarni o‘rganish topshirig‘i berilgan edi (Бичурин 1950: 217–225). Shundan so‘ng, milodiy 100 yili g‘arbdan Xitoyga bir guruh ellin savdogarlari yetib keladilar. Aynan shu savdogarlar tufayli Xitoy va Markaziy Osiyo haqidagi ma‘lumotlar Yevropagacha yetib boradi.

Milodiy I asrlar Xitoy va Markaziy Osiyo diplomatiyasi, savdogarlari uchun unchalik yengillik olib kelmadi. Osiyoning siyosiy xaritasida yuz bergan o‘zgarishlar ko‘p narsalarni o‘zgartirib yubordi. Eronda Parfiya podsholari o‘rniga kelgan yangi sulola sosoniylar (milodiy 224-yili), nafaqat parfiyonlar merosiga egalik qilish, balki Markaziy Osiyoning sharqiy, janubiy hududlarini va anchayin zaiflashib qolgan Kushon podsholigining g‘arbiy qismlarini ham qo‘lga kiritishga intilmoqda edi.

Bu davrda Markaziy Osiyoning shimoliy qismidagi Kangyuy davlati tarqalib unga qaram bo‘lgan beshta ittifoqdosh o‘lkalar mustaqil siyosat yurgizish va qo‘shni davlatlarga o‘z elchilarini jo‘natishga ham jur’at qilishayotgan edi. Ammo bunday notinchliklarga qaramay Buyuk Ipak yo‘li o‘z maromida faoliyatini davom ettirib, unga aloqador davlatlarga mo‘may daromad keltirmoqda edi. Xitoy zodagonlari, ipak savdosi G‘arbiy o‘lka savdogarlarini Usmon imperiyasiga juda qattiq bog‘lab qo‘yganligini yaxshi anglar edilar. Bu davrda Markaziy Osiyo zaminidagi katta-kichik davlatlar Xitoy imperatorlari bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatib qizg‘in savdo-sotiqni yo‘lga qo‘yishga intilishardi. Shu sababli, 627–647 yillarda Samarqanddan Xitoyga 9 marta yirik elchilik va savdo karvonlari borganligiga yozma manbalar orqali guvoh bo‘lish mumkin. Savdo-karvonlari Buxoro, Maymurg‘, Ishtixon, Kesh va boshqa shaharlardan ham borgan. Bu karvonlar o‘zlari bilan Xitoyga oltin, nefrit, kigiz, har xil gazlamalar, yo‘lbars, tuya, ot va chiroyli parrandalarni ham olib borganlar.

Qaysidir sabablarga ko‘ra, milodiy III–V asrlarda Xitoy bilan Markaziy Osiyodagi davlatlar o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar to‘xtab qoladi. Har qalay bu haqdagi tarixiy manbalar bizga ma‘lum emas. Xitoy bilan Markaziy Osiyo davlatlaridagi munosabatlarning qayta tiklanishi Vey dinastiyasi davriga to‘g‘ri keladi. Bu dinastiyaga mansub imperator Tay U (424–452 yy.) Markaziy Osiyo tomonga katta elchilar karvonini yo‘llaydi. Bu karvonga saroy amaldorlari Dun Van va Gao Minlar boshchilik qiladilar. Elchilar o‘zlari bilan sovg‘a-salomlar uchun katta miqdorda ipak matolar olib kelishadi (Саидов, Ртвеладзе 2009: 445). Elchilar karvoni shimoliy yo‘l, ya’ni usunlar yurti orqali o‘tib keladilar. Usunlar hukmdori elchilarga Dovon (Farg‘ona) va Chjeshe (Choch – Toshkent vohasi) hukmdorlari ham Xitoy bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatmoqchi ekanliklarini aytadi. Shu sababli, usunlar qarorgohidan elchi Dun Van Farg‘onaga, elchi Gao Min esa Chochga yo‘l oladi. Xitoyning “Beyshi” yilnomasida yozilishicha, ortiga qaytayotgan elchi Dun Vanning karvoni bilan Markaziy Osiyodagi 16 davlatning elchilari Xitoyga yo‘l oladilar (Малявкин 1989: 64).

Endi ittifoqchilar o‘rtasidagi munosabatlar haqida gapiradigan bo‘lsak, Eron bilan Turk hoqonligi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar juda tezlashib ketadi. Abulqosim Firdavsiyning yozishicha, Turk hoqonining Eron tomonga jo‘natgan elchilarini eftalitlar shohi G‘otifarning ko‘rsatmasi bilan yo‘lda xoinona o‘ldiradilar. Bu voqyea urushni yanada tezlashtirib yuboradi Turk hoqoni qo‘shinlari Choch va Parak (Chirchiq)ni istilo qilib Zarafshon vodiysiga yetib keladilar va Maymurg‘ atrofida to‘planadilar. Eftaliylarning asosiy qo‘shini Buxoro yaqinida to‘planadi. Hal qiluvchi jang 564-yili bo‘lib o‘tadi. Eftaliylar Varaz boshchiligida jangga kirishadi va bu jang 8 kun davom etib eftalitlarning qaqshatqich mag‘lubiyati bilan yakunlanadi. Ittifoqchilar eftaliylar merosini o‘zaro bo‘lib oladilar va har ikki o‘rtadagi chegara sifatida Amudaryo belgilanadi. Eftaliylarning mag‘lubiyatidan so‘ng Buyuk Ipak yo‘lining katta qismi turklar tasarrufiga o‘tadi. Milodiy VI asrlarda G‘arb mamlakatlarida ipak matolarga talab ancha katta bo‘lib, bu yerga ipakni asosan sug‘diy va eroniy savdogarlar olib kelishar edi.

Albatta, ipak savdosi savdogarlar uchun katta daromad keltirardi. Buning ustiga Eron bilan Vizantiya o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni unchalik do‘stona ham, deb bo‘lmasdi. Vizantiyaliklar Sug‘d savdogarlaridan katta miqdorda ipakni sotib olishar va so‘ngra bu ipakni qo‘shni G‘arb mamlakatlariga sotishib, tushgan daromadga qurol-yarog‘lar sotib olishgan. Bu qurol-yarog‘lardan esa Eron bilan bo‘ladigan harbiy nizolarda foydalanishardi. Sug‘d savdogarlarining Vizantiyaga bo‘lgan yo‘llari esa Eron orqali o‘tar edi.

Ma’lumki, VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Sug‘d va Farg‘ona Turk hoqonligi tasarrufiga o‘tgan edi. Aynan mana shu tarixiy mintaqalarda Xitoy ipagidan har jihatdan qolishmaydigan ipak yetishtirilar edi. Shu sababli, Turk hoqoni xuddi Sug‘d va Farg‘ona savdogarlari kabi Vizantiya bozoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ipak olib borib sotishdan manfaatdor edi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek karvon yo‘li Eron orqali o‘tar edi.

Yabg‘u-hoqon Istamixon 567-yili sug‘d savdogarlarining iltimosi bilan Eronga katta elchilar karvoni jo‘natishga rozilik beradi. Elchilar karvoniga esa boy sug‘d savdogar va elchisi Moniyoh rahbarlik qiladi. Elchilar Eron hukmdori Xusrav Anushirvon bilan sug‘d ipagini Vizantiya bozoriga yetkazish shartlarini kelishishlari lozim edi. Eronliklar sug‘d elchilarini yaxshi kutib oladilar va ularga javob berish muddatini ancha orqaga suradilar. So‘ngra, eftaliy Katulfning maslahati bilan eronliklar sug‘dlar olib borgan ipakni sotib oladilar va katta maydonda to‘plab elchilarning ko‘z oldida ipakni yoqib yuboradilar. Sug‘dlar bunday haqoratli munosabatdan qattiq xafa bo‘lib ortlariga qaytadi.

Istami hoqon eronliklarning qilgan ishlariga hayron bo‘lib, ikkinchi marta elchilar karvonini yo‘llaydi. Endi esa karvonda faqatgina turklar bor edi. Eron shohining buyrug‘i bilan karvondagi barcha elchilar va savdogarlar zaharlanib o‘ldiriladi. Faqat bir-ikki kishigina omon qaytib bu fojea haqida hoqonga xabar beradi. Bu voqyea ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning butunlay yomonlashuvini anglatar edi.

Eron bilan bo‘lgan muzokaralardan hech qanday natija chiqmagach, sug‘d savdogarlari Istami hoqonga boshqa yo‘lni taklif qiladilar. Ular Eronni chetlab o‘tadigan yo‘l orqali Vizantiyaga, imperator Yustin II (566–578 yy.) huzuriga elchilar karvonini jo‘natish tashabbusi bilan chiqadilar. Elchilar karvoniga yana o‘sha Moniyoh boshliq qilib tayinlanadi. Elchilar Vizantiya imperatori bilan Eronga qarshi harbiy ittifoq tuzishlari va sug‘d ipagini bu yerga keltirib sotish shartlarini o‘zaro kelishishlari lozim edi.

Elchilar Eron hududini chetlab Sirdaryo orqali Orolbo‘yiga chiqadilar, so‘ngra Shimoliy Kavkaz orqali o‘tishib Konstantinopol shahriga yetib keladilar. Imperator 568-yili eson-omon yetib kelgan hoqon elchilarini qabul qiladi. Moniyoh imperator Yustin II ga hoqonning maktubi va sovg‘a-salomlarini beradi. Va natijada har ikki o‘rtada Eronga qarshi harbiy ittifoq tuziladi.

Eronliklar Vizantiya bilan turklar o‘rtasida harbiy ittifoq tuzilishiga va bitim imzolanishiga har tomonlama qarshi edilar. Ammo bu voqyea bo ‘lib o‘tgan, uni ortga qaytarishning iloji yo‘q edi.

Ikki o‘rtada tuzilgan harbiy ittifoq shartlariga ko‘ra, Vizantiya g‘arb tomondan Eronga zarba berishi lozim edi. Ammo vizantiyaliklar o‘z so‘zlarini ustidan chiqmadilar va 571 yili Xusrav bilan tinchlik shartnomasini imzoladilar. Hoqonning harbiy harakatlaridan cho‘chib qolgan eronliklar turklarga har yili qirq ming oltin tanga miqdorida soliq to‘lash va Amudaryoning shimoliy hududlarini turklarga berish shartlariga rozi bo‘ladilar.

Eronliklar bilan hoqon o‘rtasida imzolangan yangi bitim vizantiyaliklarni ancha tashvishga solib qo‘ygan edi. Ayni vaqtda vizantiyaliklarning turklar bilan imzolagan shartnoma bandlarini to‘liq bajarmaganliklari ularni ittifoqchi sifatida ishonchsiz ekanliklarini ko‘rsatgan edi. Hoqonning bu ittifoqqa bo‘lgan qiziqishi ancha pasaygan edi.

VII asrning boshlarida Turk hoqonligiga tobe Markaziy Osiyodagi ayrim hukmdorliklarda mustaqillikka erishish harakatlari boshlanganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Milodiy 605-yili Choch aholisi markaziy hokimiyatga qarshi isyon ko‘taradi, ammo qo‘zg‘olon bostirilib mahalliy hokimiyat tarqatib yuboriladi. Samarqand va Buxorodagi hukmdorlar esa aksincha hoqonlik bilan o‘z munosabatlarini yanada mustahkamlashga va hoqonning ko‘magiga sazovor bo‘lishga intiladilar. Markaziy Osiyodagi katta-kichik davlatlarni o‘z tarkibiga qamragan G‘arbiy turk hoqonligi milodiy 618–630 yillarda Tun Yabg‘u hoqon hukmronligi davrida katta kuch-qudratga erishadi. U

Markaziy Osiyodagi hukmdorliklarda ko‘pgina islohotlar o‘tkazadi va boshqaruv tizimlarini yanada takomillashtiradi.

Sug‘d hukmdorlariga hoqonlikdagi oliy darajadagi unvonlardan biri-“silif” unvoni beriladi. Bundan tashqari Markaziy Osiyodagi davlatlardagi boshqaruv ishlarini, soliqlarni yig‘ish va tushgan soliqlarni hoqon xazinasiga jo‘natilishini nazorat qilish uchun maxsus nazoratchi-amaldorlar - tudunlar jo‘natiladi. Bu tadbirlarning barchasi G‘arbiy turk hoqonligining har jihatdan yuksalishiga olib keladi. Xalqaro maydonda ham hoqonning obruyi oshib uning huzuriga juda ko‘plab xorijiy elchilar kela boshlaydi.

G‘arbiy turk hoqoni huzuriga kelib u bilan uchrashgan elchilardan biri bu xitoylik buddaviy monax va elchi Syuan Szandir. U milodiy 629–630 yillarda Hindistonga borish uchun Markaziy Osiyo orqali yo‘lga chiqadi va bizning ajdodlarimiz haqida muhim ma’lumotlarni yozib qoldiradi. U endigina ovga chiqayotgan yabg‘u-hoqon bilan uchrashadi va bu uchrashuv tafsilotlarini o‘z kundaliklarida yozib qoldiradi.

Syuan Szanning ma’lumotiga ko‘ra, u hoqon va uning a’yonlariga buddaviylikning o‘n sharti, hayotni saqlash, Paramit haqida va bu dunyodagi g‘am-g‘ussa, kulfatlar, hamda ulardan xolos bo‘lish yo‘llari haqida so‘zlab bergan. Uning aytganlarini diqqat bilan tinglagan hoqon, qo‘lini oldinga cho‘zib, ta’zim bajo keltirib, xursandchilik bilan uning ta’limotini qabul qilganligini bildirgan. Suhbat davomida hoqon Syuan Szanni bu yerda qolishga undagan. Ammo elchi, maqsadi tezda yo‘lga chiqib Buddaning muqaddas tanasini o‘z ko‘zi bilan ko‘rish va bu dinni yanada chuqurroq o‘rganish ekanligini izhor qilgan. Shundan so‘ng hoqon o‘z qo‘shinlari orasidan xitoy va boshqa tillarni yaxshi biladigan bir yigitni topib, unga “modu”, degan unvon beradi va Syuan Szanga butun safari davomida hamrohlik qilishni buyuradi. Bundan tashqari hoqon monaxga, har xil kiyim-boshlar, ajnabiy hukmdorlar nomiga yozilgan maktublar, hamda ellik toy ipak beradi (Зуев 1960: 88–89).

Elchi Syuan Szan safari mobaynida Samarqanddan o‘tar ekan bu shahar haqida o‘z xotiralarini yozib qoldirgan. Barcha tarixchilarning yakdillik bilan tan olishlaricha, Turk hoqonligi davrida Vizantiya, Xitoy, Hindiston, Koreya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida Buyuk Ipak yo‘li orqali amalga oshirilgan savdo-sotiq ishlari yuksak cho‘qqilarga ko‘tarildi.

Sug‘dning ilk o‘rta asrlarda qo‘shni mamlakatlar bilan o‘rnatgan diplomatik munosabatlari haqida guvohlik beruvchi arxeologik manbalar ham mavjuddir. 1965 yili Samarqandning qadimgi o‘rni – Afrosiyobda qazishmalar olib borayotgan arxeologlar, shahriston hududidan boy bir amaldorning hovlisidan devoriy suratlar qoldig‘ini topgan edilar.

Ushbu devoriy suratlarda, Samarqandga kelayotgan elchilar karvoni va Sug‘d hukmdori Varxumanning xorijiy mamlakatlardan kelgan elchilarni qabul qilish marosimi tasvirlangan (Альбаум 1975: 87–107). Manbalar asosida shu narsa ma’lumki, Varxuman Sug‘d ixshidi, Samarqand afshini, ya’ni Sug‘d podshosi va Samarqand hukmdori degan lavozimlarga ega bo‘lgan. Ko‘pchilik olimlar Varxumanni turk bo‘lganligini yozganlar. Mug‘ tog‘idan topilgan nikoh shartnomasidan anglanishicha, aslzoda turklar o‘z turkcha nomlari bilan birga sug‘dcha nomlarga ham ega bo‘lganlar.

Yuqorida aytilganidek, ilk o‘rta asrlarda Sug‘d hukmdorlari ikki xil titulga (unvonga) ega bo‘lganlar, ya’ni “Sug‘d ixshidi” va “Samarqand afshini”, degan unvonlarga. Taxminlarga ko‘ra, Varxuman VII asrda G‘arbiy turk hoqonligi inqirozga uchragach Sug‘dning birinchi hukmdori bo‘lgan.

Samarqand yaqinidagi Kofirqal’a yodgorligini tadqiq qilayotgan paytda arxeolog olimlar juda noyob bo‘lgan bir necha yuzlab bullalarni topganlar. Taxminlarga ko‘ra, bu yerda Samarqand hukmdorlarining arxivi bo‘lgan. Afsuski, bu arxiv arablar bilan bo‘lgan janglar paytida yonib ketgan. O‘sha davrdagi tartib – qoidaga binoan arxivdagi har bir hujjatga bulla – muhrlar tirkalgan. Bullalar loydan yasalganligi uchun saqlanib qolgan, hujjatlar esa yonib ketgan. Qofirqala’dan topilgan bullalar ichida, boshiga toj kiygan hukmdor tasviri tushirilgan topilma alohida diqqatga sazovordir. Xuddi shunga o‘xshash bulla pokistonlik kolleksioner Omon-ur-Rahmonning kolleksiyasida ham mavjud

bo ‘lib, bu bulla Peshovar shahridan topilgan. Ushbu bullada yozuv ham saqlangan, uni ingliz olimi Sim-Villyams o‘qigan. Baqtriya yozuvida bitilgan ushbu bitikda: “Xunnlar podshosi, Qushonlarning ulug‘ shohi, Samarqand afshini”, – degan so‘zlar bor. O‘z-o‘zidan ayonki, ushbu bulla qadimda Buyuk Ipak yo‘li orqali hozirgi Pokistonga jo‘natilgan elchilik nomasi orqali u yerga borgan bo‘lib, bu hujjat Samarqand hukmdori nomidan yozilgan bo‘lgan (Lerner, Sim-Williams 2011: 72–74).

Endi Afrosiyob devoriy suratlariga qaytadigan bo‘lsak, shuni aytishimiz lozimki, devoriy suratlar 11x11 m.lik hashamatli zalning to‘rtala devoriga chizilgan. Bu suratlarda Samarqand hukmdori oldiga kelgan ajnabiy elchilar va ularning qabul marosimi ifodalangan. Janubiy devorda esa Chag‘oniyondan kelgan elchilar tasvirlangan. Chag‘oniyon elchilari juda bashang liboslarda tasvirlangan bo‘lib, elchilar karvonining oldida ustida go‘zal ayol o‘tirgan fil odimlab bormoqda. Filning ortidan esa otliq kanizaklari bormoqdalar. Shuningdek, ushbu karvonda qo‘llariga aso ushlagan va jangovor tuyalarga mingan mulozimlar ham bor.

Elchilar boshlig‘i karvonning o‘rtasida bormoqda, u qizil libosda, qo‘liga esa amaldorlik asosini ushlab olgan. Elchi mingan ot anchayin yirik qilib tasvirlangan. Shimoliy devordagi surat syujet jihatidan ikki qismga bo‘lingan, birinchi qismda otliqlarga tashlanayotgan vahshiy hayvonlar tasvirlangan bo‘lsa, ularning orqa qismida esa bo‘xchalarni taxlayotgan hammollar tasvirlangan. Syujetning ikkinchi qismida, asov daryodan qayiqlarda suzib o‘tayotgan odamlar tasvirlangan. Bu yerda ikkita qayiq chizilgan bo‘lib qayqlarning birida erkaklar, ikkinchisida esa ayollar tasvirlangan. Qayiqda o‘tirganlarning liboslariga qaraganda ular Sharqiy Turkistondan Samarqandga kelayotgan elchilardir. Ayrim olimlarning fikricha, elchilar Xitoy malikasini Samarqand hukmdori uchun xotinlikka olib kelishmoqda (Альбаум 1972: 42–53).

Sharqiy devordagi suratlar anchayin yomon saqlangan bo‘lib, uning bir qismida dengizda cho‘milayotgan yosh yigitlar, hamda suvda suzayotgan qushlar, jonivorlar tasvirlangan. Shuningdek, bu devorda ikki kishi tasvirlangan, tadqiqotchilar ularni hindistonliklar ekanliklarini tasdiqlaganlar. G‘arbiy devorda Samarqand hukmdori tomonidan ajnabiy elchilarni qabul qilish marosimi tasvirlangan bo‘lib, afsuski Varxumanning tasviri esa saqlanmagan. O‘ttiz kishidan iborat saroy a’yonlari har xil, rang-barang liboslar kiyib olishgan. Saroy a ‘yonlari orasida turk zodagonlari va sug‘d aslzodalari alohida-alohida tasvirlangan. Bu sahnada Varxuman atrofidagi saroy a’yonlari tasviri tushirilgan bo‘lib, ularning liboslari, qo‘llaridagi buyumlariga qarab ularni saroyda egallagan mavqyelarini anglash mumkin. Syujetning markazida hukmdorning qarshisida xitoylik elchilar tasvirlangan. Ularning chap tomonida Samarqand, hukmdoriga o‘z sovg‘alarini taqdim etayotgan Chag‘oniyon elchilari tasvirlangan.

G‘arbiy devorning shimoliy qismida Chochdan va Koreyadan kelgan elchilar ifodalangan. Koreyalik elchilar o‘z milliy liboslarida tasvirlangan bo‘lib, bu liboslar orqali ularni osongina boshqalardan ajratib olish qiyin emas (Альбаум 1975: 74–79). Chag‘oniyon elchilaridan birini uzun libosining pastki qismida yozuvlar bitilgan. Teparoqda baqtriya yozuvida bitilgan yozuv juda yomon saqlaganligi uchun uni o‘qishni iloji bo‘lmagan. Olimlarning taxminlaricha, bu yerda elchi Samarqandga olib kelgan rasmiy xatning matni yozilgan bo‘lishi mumkin. Bu yozuvdan sal pastroqda sug‘d yozuvi bilan bitilgan 16 qator matn saqlangan. Afsuski, bu yozuv ham yomon saqlangan, ammo uni asosiy qismini o‘qishga erishilgan.

Agarda suratda aks ettirilgan Chog‘aniyon elchisining kiyimiga yozilgan sug‘d yozuvlarining mazmuniga e’tibor beradigan bo‘lsak, bu o‘rinda ham ko‘p narsa oydinlashadi. Biz elchining “Men Samarqand xudolari va shuningdek Samarqand yozuvlaridan boxabarman”, – degan so‘zlari ko‘p narsani anglatadi. Hozirgi zamonaviy diplomatiyada o‘zga davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ma’lum bir davlatda amalda bo‘lgan urf-odatlar, marosimlarga, tartib-qoidalarga hurmat bilan qarash kabi tamoyillar mavjud. Bizning ajdodlarimiz bundan 1400 yillar ilgari bu tamoyillarni

qo‘llaganliklari va bu tamoyil shuncha asrlar mobaynida saqlanib kelayotganligi muhimdir. Bu faktlar o‘zbek davlatchiligining ildizlari chuqur, teran va qadimiy ekanligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Альбаум Л. И. Буддийский храм в монастырском комплексе Фаязтепе // Тезисы докладов сессии, посвященной итогам полевых исследований 1972 г. Ташкент.1973.С.42–53.

Альбаум Л. И. Живопись Афрасиаба. Отв. ред. д-р ист. наук Я. Г. Гулямов. Ташкент, Фан, 1975.160 с.

Бердимуродов А., Индиаминова Ш. Буюк ипак йўли: (Қитъалар ва асрлар оша). Мас.муҳаррир: тарих фанлари доктори, профессор Т. Ш. Ширинов. Тошкент. Ўзбекистон. 2017. 384 бет.

Бичурин Н. Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том II. М.-Л., Изд-во АН СССР. 1950. 334 с.

Зуев Ю. А. Китайские известия о Суябе // Известия АН Каз.ССР. Серия истории, археология и этнография. Вып. 3 (14). Алма-Ата, 1960. С. 87–96.

Кляшторный С. Г., Султанов Т. И. Государства и народы Евразийских степей. Древность и средневековье. С-Пб., Изд. Петербургское Востоковедение. 2007. 320 с.

Лунин Б. В. История Узбекистана в источниках. Отв. ред. Доктор исторических наук Х. З. Зияев. Ташкент, Фан.1984. 224 с.

Малявкин А. Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии. Тексты и исследования // Отв. ред. доктор исторических наук Ю.М. Бутин. Новосибирск, Наука.1989. 432 с.

Саидов А. Х., Ртвеладзе Э. В. Дипломатические отношения // История государственности Узбекистана. Том I. Ташкент, 2009. 445 с.

Lerner A., Sim-Williams N. Seals, Sealings and tokens from Bactria to Gandhara. Vol. 2. Austrian Academy of Sciences. 2011. 222 p.

REFERENCES:

Al ‘baum L. I. 1973. *Buddijskij khram v monastyrskom komplekse Fayaztepe. Tezisy dokladov sessii, posvyashhennoj itogam polevykh issledovanij 1972 g. (The Buddhist temple in the monastic complex of Fayaztepa. Abstracts of the conference dedicated to the results of the 1972 field research).* Tashkent, 42–53. (In Russian).

Al ‘baum L. I. 1975. *Zhivopis ‘ Afrasiaba (The Paintings of Afrasiab).* In Gulyamov, Ya. G. (ed.). Tashkent, Fan Publ., 160. (In Russian).

Berdimurodov A., Indiaminova Sh. 2017. *Buyuk ipak yo ‘li: (Qit ‘alar va asrlar osha) (The Great Silk Road: Across Continents and Centuries).* In Shirinov, T. Sh. (ed.). Tashkent. O ‘zbekistan Publ., 384. (In Uzbek).

Bichurin N. Ya. (Iakinf). 1950. *Sobranie svedenij o narodakh, obitavshikh v Srednej Azii v drevnie vremena (A Collection of Information about the Peoples Inhabiting Central Asia in Ancient Times).* Vol. II. Moscow-Leningrad, AN SSSR Publ., 334. (In Russian).

Zuev Yu. A. 1960. *Kitajskie izvestiya o Suyabe (Chinese Reports about Suyab).* In *Izvestiya AN Kaz.SSR. Seriya istoriya, arkheologiya i ehtnografiya (Proceedings of the Academy of Sciences of the Kazakh SSR). Series: History, Archaeology and Ethnography. Issue 3.* Alma-Ata, 87–96. (In Russian).

Klyashtornyj S. G., Sultanov T. I. 2007. *Gosudarstva i narody evrazijskikh stepej. Drevnost ‘ i srednevekov ‘e (States and Peoples of the Eurasian Steppes: Antiquity and the Middle Ages).* Sankt-Peterburg, Peterburgskoe Vostokovedenie Publ., 320. (In Russian)

Lunin B. V. 1984. *Istoriya Uzbekistana v istochnikakh (The History of Uzbekistan in Sources).* In Ziyaev Kh.Z. (ed.).Tashkent. Fan Publ., 224. (In Russian).

Malyavkin A. G. 1989. *Tanskie xroniki o gosudarstvax Sentralnoy Azii (Tang Chronicles about the States of Central Asia).* In Butin YU.M. (ed.). Novosibirsk. Nauka Publ. 432. (In Russian).

Saidov A. Kh., Rtveladze Eh. V. 2009. *Diplomaticheskie otnosheniya (Diplomatic relations).* In *Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana (History of Uzbek Statehood). Vol. I.* Tashkent, 445. (In Russian).

Lerner A., Sim-Williams N. 2011. *Seals, Sealings and tokens from Bactria to Gandhara. Vol. 2.* Austrian Academy of Sciences Press Publ., 222. (In English).

DIPLOMATIC RELATIONS ALONG THE GREAT SILK ROAD:
The Case of Samarkand Sogd

© 2025. Shoira Indiaminova

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Key words: The Great Silk Road, diplomacy, Ban Chao, trade agreements, caravan routes, conflicts and their resolution, cultural ties, religious exchanges.

This article provides a unique perspective on the role of diplomacy in establishing and maintaining trade relations between China, Central Asia, India, the Middle East, and Europe in the early Middle Ages. The article also examines the diplomatic tools used by ancient empires, how alliances and agreements were concluded between states, and what methods of diplomacy were used to resolve regional conflicts and ease tensions. In addition, attention is focused on the influence of cultural exchange and diplomatic relations on the development of science, art and religious beliefs. As a result of their analysis, it can be understood that diplomacy served as an important factor in stability and prosperity along the Silk Road. The article examines the role of diplomacy in the context of trade and cultural exchange along the famous trade route of the ancient empire to ensure the safety of caravan routes, resolve trade disputes and encourage cultural exchange between different peoples and civilizations, as well as how it was used by states. Diplomatic mechanisms are analyzed and the various diplomatic strategies and tools used in ancient times to maintain peace and stability along this long route from China to Europe are described. The article also provides historical examples of the successful use of diplomacy to resolve regional conflicts and prevent military conflicts. This helps to understand the importance of diplomatic skill in ensuring stability and prosperity along the Silk Road. In addition, the article shows the role of diplomatic exchanges in the dissemination of cultural and scientific achievements, as well as in shaping public opinion and ideas about other cultures and peoples along the Silk Road.